

IJTIMOIYLASHUV VA SHE'RIYAT

Maxmudov Sardorbek Esonali o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti
stajyor-o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10002800>

Annotatsiya: XX asrning 70-80-yillariga kelib O'zbekistonda ijtimoiy hayot tubdan o'zgargan, o'zbek xalqi turmushi, hayot kechirish tarzi o'zgargan edi. Bu ijtimoiy-madaniy va siyosiy hodisalar ijodkor e'tiboridan chetda qolmadi. Maqolada ijtimoiylashuv va she'riyatning o'zaro aloqasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, san'at, ijtimoiylashuv, she'riyat, ijodkor shaxsi, lirik qahramon.

80-yillar avlod she'riyati 30-50-yillar she'riyatidan anchagina farqli. D.Quronov 50-yillar adabiyoti haqida shunday yozadi: "Adabiyotdagi tussizlikning boisi shuki, sho'ro adabiyotidagi (ayniqsa, 30-50-yillardagi) ko'plab asarlarda ijtimoiylik bo'lgan holda, ijodkor shaxsi yo'qolgan, natijada ular bir-biridan shakliy xususiyatlari bilangina, go'yo rang-barang qog'ozlarga o'rab berilgan bitta matohga aylanib qolgandi. Albatta, chinakam iste'dod bunday bo'g'iq sharoitga ko'nikolmaydi, isyon qiladi. Shu bois hatto mustabid tuzum davrlarda yaratilgan asarlarning ayrim o'rinlarida ijodiy "men" goh-goh bo'y ko'rsatib, asarga jonlilik baxsh etib turadi" [1, 47]. XX asrdan boshlab ijtimoiylashuv rus istibdodining kirib kelishi, madaniyatlar almashinuvi, ilm-fandagi o'zgarishlar natijasida insonlarning tafakkur tadrijida o'zgarishlar sodir bo'la boshlagan bo'lsa, shoir-yozuvchilar aqliy va badiiy tafakkurida g'ujg'on qaynayotgan o'y-fikrlar, his-tuyg'ular jamiyatning buguni va ertasi haqida chuqur qayg'uga botiradi. Hokim mafkuraning adabiyotni o'z quroliga aylantirishi natijasida adabiyotning estetik hodisa ekanligi, uning asl mohiyati unutila boshladi. Ijodkorlarga bo'layotgan bosimlar natijasida buyurtma asarlar yaratildi. Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ahvoloti tanazzulga yuz tuta boshlagan edi. Adabiyotni rasmiy mafkuraga bo'ysundirgan hokimiyat esa xalqlar do'stligi deya tarannum etdi. She'rxonlik davralarida ijodkor gul uzatgan muxlislaridan-da hayiqadigan palla edi. Gul ichida qurol yo'qmikan degan hadik shu ahvolotga olib kelgan edi. 70-80-yillarga kelib esa ijtimoiy-siyosiy vaziyat biroz yumshagan, mustabid tuzum kuch-quvvatdan ancha qolgan palla edi. Ammo Chor Rossiyasining paxta siyosati, Markazning yana-yanasi kundan kun oshib borayotgan, go'yo "paxta o'zbek xalqi uchun yaratilmaydi, lekin o'zbek xalqi paxta uchun yaralgan" [2] tarzida tushunishimiz mumkin. Shavkat Rahmon "G'o'za" nomli she'rida lirik qahramon g'o'zaga murojaat qiladi:

Bir parixon
 kabi so'zladim
 tuproq yorgan g'o'zaga qarab:
 "Avlodlarning haqqi- hurmati
 o'sgin
 o'sgin
 pakana daraxt" [3, 208].

Lirik qahramon ya'ni shoir iltijosi g'o'zaga qaratilgan. [Axir senga egilaverib] [yo aytolmay ko'ngil dardini] [qancha avlod qadimdan buyon] [rostlay olmay o'tdi qaddini] 80-yillar "o'zbek ishi", "paxta ishi" deya nom olgan sovet siyosati yolg'on bo'htonlar bilan o'zbeklarni qamoqxona va surgunlarga mahkum qilgan edi. "Butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda

ham kamchiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar bor edi, albatta. Lekin bu illatlarni O'zbek xalqi emas, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi.

O'zbekiston fuqarolari o'z haq-huquqlarini himoya qilishni so'rab tuman, viloyat va respublika partiya va sovet organlariga murojaat qildilar. Yuz minglab fuqarolar O'z KP MQga, mahalliy hokimiyat organlariga o'z haq-huquqlarining, qonuniy manfaatlarining buzilganligini shikoyat qilib koridorma-koridor, eshikma-eshik turtinib yurdilar. Norozilik ayniqsa xotin-qizlar orasida ko'paydi. 1986-1987 yillarda respublikada 270 nafar ayol o'zini-o'zi yondirib yubordi. Bu holat ularning sha'ni qadr-qimmatining toptalishi, haq-huquqlarining buzilishiga nisbatan so'nggi norozilik ifodasi edi." [4] Lirik qahramonning bir o'simlikka yolvorishi ham shundan. "Shoir millionlik xirmonlar o'zicha emas, balki ko'pchilik sezmayotgan qurbonlar evaziga: kirza etikli qizlarning "ming bora egilib, ming bor yalinib, har mitti g'o'zani sizlab" uyg'otishlari, "saksovul singar chidamli, chayir" odamlarning oltinga mengzalsa-da, asli "yerga o'xshab ketgan"[Uyg'oq toshlar,156] qo'llari bilan, "qanchadan qancha o'ktam asrlar qaddini rostlay olmay o'tayotgani" [UT,95] hisobiga barpo etilayotganini biladi" [5, 179]. Xurshid Davron esa

Sovuqlarda og'risa suyak,
Sog'liq tila o'zingga o'zing.
Sovuqlarda og'risa suyak,
Ishqdan yonib tovlansin ko'zing,
Yashnasa bas Vatan dalasi,
Yangrasa bas ona allasi.

Alloh mavjudotlar ichi insonni muqaddas qildi. Uning molini, jonini omonat qildi. Odam Ato o'g'illari davridan boshlangan buzg'unchilik odamzod uchun meros bo'ladi balki. 80- yillar paxta siyosatining tobora jiddiy tus olishi o'zbek xalqining yosh-u qarisini dalalarda tun-u kun ishlashga, qora terga botishiga majbur qilgandi. Sovuqlarda daladan chiqmagan o'zbek xalqining g'arib hayotidagi chizgilar jonlanadi shoir misralarida. Va she'rda joning og'risa-da ko'zlaring yonib tursin, chunki gap Vatan dalasi haqida ketyapti degan xitob bor. Dala (paxta), siyosat va qamoq so'zlari bir-biriga uzviy bog'liq, assotsiativlik hosil qiluvchi leksemalarga aylangan edi. She'rning yakuni esa [O'lim kelsa uyga kiritma, Dalalarga olib chiq uni. Dalalarda uzilsin joning...] misrasi bilan yakunlanishidan inson qadrining qanchalar qiymatsizligini ko'rishimiz mumkin.

Kuzni o'yla
Ikki tol ovutolmayotgan
Belanchakdagi bolaning bo'g'ilib yig'lashi,
Kun issig'ida ko'ksida suti qurib qolgan ayolning
Iztirobi aro kuzni o'yla,
Kuzni o'yla,
Kuzni o'yla...

Paxta siyosati shu darajaga borib yetgan ediki, o'zbek xalqi turmushining eng chuqur puchmoqlariga qadar kirib bordi. Bu esa rus hukumatining o'zbek xalqiga uyushtirgan "suiqasdi" edi. "Ular 70-80-yillarda mamlakatda keng tus olgan qo'shib yozishlar bo'yicha jinoyatchilarni aniqlab berishlari kerak edi. Haqiqatan ham shu yillarda paxta, chorva va boshqa sohalar bo'yicha qo'shib yozishlar davlat rejalarini sun'iy ravishda bajarish usuli

bo'libgina qolmay, millionlab so'm davlat mablag'larini suiste'mol qilish va talon-taroj etishning sinalgan usuli edi. Poraxo'rlik avjiga mingandi. Bunday qo'shib yozishlar, poraxo'rliklarning asosiy ilhomchisi va tashkilotchisi Moskvaning o'zi bo'lib, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, davlat xo'jaligi direktorlari, jamoa xo'jaligi raislari, paxta tayyorlash korxonalari va paxta tozalash zavodlari rahbarlari bu ish bilan bog'liq edilar [6]." Lekin bu poraxo'rliklarning tovonini oddiy, mehnatdan boshi chiqmagan dehqon, ishchilar to'ladi.

References:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 47
2. Hamdamov U. 70-yillar avlodi she'riyati: Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron <https://kh-davron.uz/yangiliklar/ulugbek-hamdami-70-yillar-avlodi-she'riyati-xurshid-davron.html>
3. Shavkat Rahmon Abadiyat oralab. – Toshkent, 2012. – B. 208
4. <https://azkurs.org/mavzu-paxta-ishi-ozbek-ishi-nomli-kompaniyalar-reja.html>
5. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: "Adib" nashriyoti, 2012. – B. 179.
6. <https://azkurs.org/mavzu-paxta-ishi-ozbek-ishi-nomli-kompaniyalar-reja.html>